

DAVLAT TASHQI QARZLARINI SAMARALI BOSHQARISH YO‘LLARI

Bekmirzayev Xusan Erkin o‘g‘li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasida davlat tashqi qarzi hajmi 2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra 40,2 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich mamlakat yalpi ichki mahsulotining 35foiziga teng bo‘lib, xalqaro standartlar nuqtayi nazaridan xavfli darajada bo‘lmasa-da, qarz yuki ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bois, davlat qarzining tarkibi, muddati, foiz stavkalari, valyuta riski kabi omillarni hisobga olgan holda, uni strategik tarzda boshqarish talabi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Kalit so‘zlar. Davlat qarzi, davlat krediti, tashqi qarz, ichki qarz, qarz beruvchi, qarz oluvchi, kafil, elektron platforma, byudjet mablag‘lari.

WAYS OF EFFICIENT MANAGEMENT OF PUBLIC EXTERNAL DEBT

Bekmirzayev Xusan Erkin Ugli

Student of Tashkent State University of Economics

Abstract: As of January 1, 2025, the volume of public debt in the Republic of Uzbekistan amounted to 40.2 billion US dollars. This figure is equal to 35% of the country's gross domestic product, and although not dangerously high by international standards, the debt burden is increasing, shows. Therefore, the demand for strategic management of the public debt, taking into account factors such as the structure, maturity, interest rates, and currency risk, remains urgent.

Keywords: State debt, state credit, foreign debt, domestic debt, lender, borrower, guarantor, electronic platform, budget funds.

Kirish.

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan bir davrda davlat moliyasini samarali boshqarish masalasi dunyo miqyosida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, strategik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va ijtimoiy sohalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat tashqi qarzlaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, davlat tashqi qarzini jalb qilish, boshqarish va undan foydalanishda samaradorlikka erishish har bir davlatning, jumladan, O‘zbekistonning ham iqtisodiy siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlardan biridir.


So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tashqi qarz mablag‘laridan foydalanishda shaffoflik va samaradorlikni oshirish, qarz yuki xavfsizligini ta‘minlash borasida qator muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, “Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan tashqi qarzlarini jalb qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 107-son 09.03.2022 yildagi Qarori davlat qarzini muvofiqlashtirish, baholash va uning xavfsiz darajasini saqlab qolish uchun muhim asos bo‘ldi. Shuningdek, 14.04.2021 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimidan umidsiz qarzдорliklarni hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”¹gi 216-sonli Qarori bilan tashqi savdo operatsiyalarida yuzaga kelgan va undirish imkoni bo‘lmagan qarzдорliklarni hisobdan chiqarish jarayoni tartibga solindi.

Mazkur strategiyada davlat qarzining YaIMga nisbati 60 foizdan, tashqi qarzning esa 40 foizdan oshmasligi, qarz jalb qilishda ustuvorlik davlat kafolatisiz qarzlariga berilishi, qarz mablag‘larining aniq maqsadlarga yo‘naltirilishi va ularning monitoringi kuchaytirilishi belgilangan. Bu esa, qarz yuki xavfsizligini saqlab qolish, fiskal barqarorlikni ta‘minlash hamda investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida² ham bu boradagi muammolarga to‘xtalib, tashqi qarz mablag‘larini faqat iqtisodiy samara keltiruvchi loyihalarga yo‘naltirish, qarz yuki ustidan qat’iy monitoring yuritish zarurligini alohida ta’kidladilar. Bunday yondashuv moliyaviy mustaqillikni saqlash, makroiqtisodiy muvozanatni ta‘minlash va kelajak avlod zimmasiga ortiqcha qarz yukini qo‘ymaslik uchun xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Davlat kreditining mazmun-mohiyati u tomonidan bajariladigan funktsiyalar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Moliyaviy kategoriya sifatida davlat krediti quyidagi funktsiyalarni bajaradi.



1.1-rasm. Davlat kreditining asosiy funktsiyalari³

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimidan umidsiz qarzдорliklarni hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 216-sonli Qarori

² Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi

³ Vahobov A., Qosimova G.A. Davlat moliyasini boshqarish. – T.: Iqtisodmoliya, 2008 y.

Davlat kreditining taqsimlash funksiyasi orqali davlatning markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish yoki muddatlilik, haqlilik va qaytaruvchanlik printsiplari asosida ulardan foydalanish amalga oshiriladi.

Bugungi kundagi O'zbekiston Respublikasi davlat qarzining joriy holatini hamda dinamikasini kuzatadigan bo'lsak, davlat qarzini makroiqtisodiy barqaror darajada saqlash hamda uni samarali boshqarish yuzasidan amalga oshirilayotgan choralar hamda milliy valyuta almashuv kursining barqarorligi sharoitlarida respublika iqtisodiyotining yuqori sur'atlar bilan o'sishining ta'minlanishi natijasida 2021-yildan boshlab Respublika davlat qarzining YaIM ga nisbati barqarorlashishi kuzatildi⁴.

3.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi to'g'risidagi ma'lumot⁵(mln.so'm)

T/r	Ko'rsatkich nomi	2024-yil	
		mln. doll	Jamiga nisbatan foizda
1	Davlat tashqi qarzi jami	33 720	100c
1.1	Xalqaro moliya institutlari	19 141	57%
	Osiyo taraqqiyot banki	7 415	22%
	Jahon banki	7 639	23%
	Islom taraqqiyot banki	944	3%
	Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki	1 652	5%
	Xalqaro valyuta jamg'armasi	669	2%
	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki	341	1%
	Boshqa XMilar (Qishloq xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi, "OPEK" jamg'armasi va YEIB)	481	1%
1.2	Xorijiy hukumatlarning moliya tashkilotlari	10 444	31%
	Xitoy taraqqiyot banki, Xitoy Eksimbanki va boshqalar	3 767	11%
	Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi va boshqalar	2 889	9%
	Koreya Eksimbanki, Koreya iqtisodiy taraqqiyot jamg'armasi va boshqalar	740	2%
	Fransiya taraqqiyot agentligi va boshqalar	977	3%
	Saudiya taraqqiyot jamg'armasi	139	0%
	Germaniya davlat banki	415	1%
	Ispaniya davlat banki	66	0%
	Boshqalar	1 450	4%
1.3.	Investorlar	4 135	12%
	Xalqaro obligatsiyalar	4 135	12%

⁴ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining —O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi 2022-yil III choragil hisoboti/msnba: www.openbudget.uz

⁵ <https://www.imv.uz/static/umumiy-jadval> Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy saytidan .

2024-yilning 1-iyul holatiga, O'zbekistonning davlat qarzi ilk marta 37 mlrd dollardan oshdi. Davlat qarzining 30,9 mlrd dollari – tashqi qarz, 6,1 mlrd dollari esa – ichki qarzni tashkil etadi. Davlat qarzi 2024 yil 1-choragiga nisbatan 1 mlrd 679 mln dollarga ko'paygan. YaIMga nisbatan ulushi ham 1,5 foizga oshib, 31,7 foizdan 33,2 foizga yetgan. Taqqoslash uchun, 2023 yilning 1 iyul holatiga davlat qarzi 31 mlrd 628 mln dollarni tashkil etgan. Bir yil ichida ushbu ko'rsatkich 5,4 mlrd dollarga yoki 17 foizga oshgan.

Davlat bugun qarz mablag'ini olsa, o'z-o'zidan ertaga bu pulni qaytarishiga to'g'ri keladi. Bundan ko'rinadiki pul muomilasi bo'lgandan keyin davlat qarzi ham bo'lar ekan. Xullas davlat qarzi ulkan darajaga yetgandan keyin uni qisqartirish zarur.

Davlat qarzini boshqarish uchun tizim va maxsus strategik dastur shakllantirish talab etiladi. Strategik dastur to'lov tizimini yumshatishi, qarz majburiyatlarini yaxshilashi, qarz amalga oshirish xarajatlarini kamaytirishi va qarzni qoplash choralari ko'rishi lozim.

Davlat qarzini boshqarishning asosiy maqsadlari quyidagilardir:

davlat qarzi darajasini xavfsiz chegarlarda ushlab turish;

qarz majburiyatlarini to'liq hajmda to'lanishini ta'minlash;

qarz majburiyatidan foydalanish xarajatlarini qisqartirish.

O'zbekistonda davlat qarzi oxirgi yillarda sezilarli o'zgarishlarga yuz tutdi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish asnosida davlat qarziga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekistonning mustaqil tarixida ilk bora yevroobligatsiyalarning muomalaga chiqarilishi va shu orqali xorijiy mablag'larni jalb etishga erishildi. Jahon amaliyotidan ma'lumki, davlat qarzi jalb etilishining asosiy omili iqtisodiyotning moliyaviy resurslarga bo'lgan talabini qondirish, jumladan, hukumatning kafolatini amalda ko'rsatishdir. Davlat qarzi hukumat kafolati asosida mablag' jalb etilishi bilan nafaqat iqtisodiyot qo'llab-quvvatlanadi, balki davlatning bosh islohotchiligi o'zining aksini topadi. Davlat qarzini boshqarishdagi asosiy omil-bu uni qiymat yaratadigan tarmoqqa joylashtirish va iste'molni oshirishdan iborat bo'lib, to'gridan-to'g'ri iste'molga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Iqtisodiyotning strategik yo'nalishlarida investitsion loyihalar uzoq muddatli davr bilan amalga oshirilishi va mos ravishda mablag'lar ham uzoq muddatga talab etilishi ma'lum. Mamlakatimiz amaliyotida qisqa muddatli davrga mo'ljallab mablag'lar jalb etish tendensiyasi uzoq muddatga mo'ljallangan markazlashgan investitsion faoliyatlarni moliyalashtirishni qimmatlashtiradi. Sababi, qisqa muddatli davrda birinchidan, foizlar yuqori bo'ladi, ikkinchidan, qisqa muddatda qaytarilishi soliq yukini oshirishga sabab bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, davlat ichki manbalari - obligatsiyalar orqali mablag'lar jalb etganda uzoq muddatli amaliyotlarga e'tiborni kuchaytirish lozim bo'ladi.

Xulosa.

Davlat tashqi qarzlarini boshqarish bo'yicha O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash, xalqaro moliya institutlari bilan barqaror hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, jalb qilingan mablag'lardan samarali foydalanish orqali milliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatish kabi asosiy maqsadlarga yo'naltirilgan. So'nggi yillarda tashqi qarz siyosatida ochiqlik, shaffoflik va javobgarlik kabi tamoyillarni mustahkamlash bo'yicha muhim qadamlar tashlanmoqda.

Davlat tashqi qarzlari, asosan, yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, strategik ahamiyatga ega sohalarni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun jalb qilinmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tashqi qarzning YaIMga nisbati hozircha xavfsiz darajada bo'lishiga qaramay, uni boshqarishda xalqaro reyting agentliklari tomonidan qo'yilgan tavsiyalarga qat'iy amal qilish zarur.

Bundan tashqari, xalqaro tajriba asosida qarzni qayta tuzish, sekuritizatsiyalash, konversiya qilish va ekologik qarz mexanizmlaridan foydalanish orqali qarz yukini kamaytirish va uni iqtisodiy samaradorlik tamoyillariga asoslangan tarzda boshqarish dolzarb masalaga aylangan. Mazkur yondashuvlar O'zbekiston iqtisodiy siyosatida strategik ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, tashqi qarzlarni boshqarish sohasida hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator muammolar mavjud.

Jumladan:

- qarz yuki xavfsizligini ta'minlash bo'yicha doimiy monitoringning yetarli emasligi;
- qarz mablag'larining ba'zi holatlarda natijasiz yo'nalishlarga sarflanishi;
- ayrim loyihalarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligining pastligi;
- tashqi qarzga xizmat ko'rsatishda valyuta risklarining ortib borayotgani.

Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish uchun davlat qarzini boshqarish strategiyasini doimiy takomillashtirib borish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni mustahkamlash, qarz jalb qilishda foyda va xavfni baholovchi tizimni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, respublikamizda davlat tashqi qarzlarini samarali boshqarishni ta'minlash, milliy iqtisodiyotning o'sishini rag'batlantirish bilan birga, kelajak avlod zimmasiga ortiqcha qarz yukini qo'ymaslik tamoyili asosida yondashuvlar ishlab chiqish hozirgi bosqichda eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2023 y.,
2. 'O'zbekiston Respublikasining "2020-yil uchun Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 12-dekabr, O'RQ-589-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni. 2022-yil 30-dekabr, O‘RQ-813-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat qarzi to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-6446817>
5. O‘zbekiston Respublikasining “Xorijdan mablag‘ jalb qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-25531>
6. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
7. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
8. X.X.Imomov, Sh.B.Babayev, Davlat qarzlarini boshqarish. O‘quv-uslubiy majmua. Toshkent-2023